

**AUTIZM SPEKTRLI BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA
KORREKSION-PEDAGOGIK REABILITATSIYASI**

N.Q.Abidova

**O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti "Pedagogika-psixologiya
va inklyuziv ta'lim" fakulteti
"Oligofrenopedagogika" kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)**

Bolalarning atrof muhitni idrok etishlari, tashqi olamga bo'lgan munosabatlarini namoyon qilishlariga ularda bilish jarayonlarining rivojlanganligi bilan bir qatorda boshqa ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Bolalar rivojlanishidagi salbiy o'zgarishlardan biri dizontogenez, ya'ni ruhiy rivojlanishda ortta qolish, buzilish va ildamlab ketish holatlarining murakkab birikmasi bo'lib, yangi bir patologik hosilalarni namoyon etadi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati, olimlar va tibbiyot xodimlarini o'ylantirayotgan masalalardan biri - bu dunyoda autizm tashxisi bo'lgan insonlar sonining sezilarli tarzda ortib borayotgani hisoblanadi. Ya'ni, autizm muammosi tobora global ahamiyat kasb etayotganligi bilan dolzarbdir.

Autizmi bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi ularning ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq, tegishli yaratilgan shart-sharoitlar asosida amalga oshiriladi. Bunday bolalarning ehtiyojlarini bilish ta'lim mazmunini aniqlash, ular uchun maxsus ta'lim muhitini yaratish, yakka ta'lim yo'nalishini aniqlash, korreksion yordamni psixologik-tibbiy-pedagogik ko'mak hamkorligida amalga oshirish, erishilgan yakuniy natijalarni baholashning mezonlarini ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

Qator ilmiy adabiyotlarda autizmi bo'lgan bolalarning alohida ta'limni olishga bo'lgan ehtiyojlari sifatida quyidagilardan qayd etilgan:

1. bolaga voqeikdagi hodisalarni anglashi va tushunishi uchun u bilan hissiy muloqotni o'rnatish va rivojlantirishga doir maxsus yordamni ko'rsatish;
2. bolaga sensor va hissiy qulaylikni ta'minlovchi ta'lim shart-sharoitlarini yaratish; uning hayotiga yangiliklarni kiritib borish;
3. ta'limning korreksion-rivojlantiruvchi jihatdan yo'nalganligi;
4. bolaning hulq-atvor, muloqotni amalga oshirish va pedagog bilan o'zaro faoliyatga kirishish malakalarini maxsus ishlab chiqish;
5. bolaning ta'limiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi ta'lim muhitini tartibga solish;
6. tegishli malakalarni o'zlashtirish va axborotlarni egallashning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'limni tashkil etish;
7. o'zlashtirilayotgan bilim va ko'nikmalarni tushunish, anglashga doimiy ko'maklashish;
8. atrof-olam borasidagi tasavvurlarni, ijtimoiy-maishiy malakalarni shakllantirish;
9. ijtimoiy jihatdan rivojlanishga ko'maklashish;
10. erishilgan natijalarni baholash;
11. psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

12. ta'lim tashkiloti doirasidan tashqarida bo'lgan ta'lim muhitini kengaytirib borish.

A.V. Xaustov autizmi bo'lgan bolalarning alohida ta'limni olishga bo'lgan ehtiyojlarini to'rt guruhga ajratadi:

1-guruh. *Ta'lim jarayonini maxsus tashkil etish bilan bog'liq ta'lim ehtiyojlari.* Mazkur ehtiyojlar mutaxassis pedagoglarning kompetentli yondashuvi; individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish; ta'lim muhitini moslashtirish; guruhli shakldagi ta'limga dastlabki tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish; kompleks psixologik-pedagogik yordamni ko'rsatish; faoliyat davomida pedagog va ota-onalarning o'zaro hamkorligi; ta'limning yakuniy natijalarini individual baholashdan iborat.

2-guruh. *Umumta'lim dasturi mazmunini moslashtirish bilan bog'liq ta'lim ehtiyojlari.* Ijtimoiy (hayotiy) kompetensiyalarni shakllantirish; ta'lim maqsadlarini alternativ maqsadlarga almashtirish; umumta'lim dasturi mazmunini soddalashtirishdan iborat ehtiyojlar.

3-guruh. *Ta'limiy materialni o'rgatish usullarini moslashtirish bilan bog'liq ta'lim ehtiyojlari.* Ta'limiy materialni o'zlashtirish usullarini, ko'rsatmalarni soddalashtirish; qo'shimcha vizual ko'mak; ta'limiy topshiriqlarning ketma-ketlikda qismlarga bo'lib taqdim etilishiga bo'lgan ehtiyoj.

4-guruh. *Rivojlanish, ijtimoiylashish va moslashish bilan bog'liq muammolarni yengib o'tish bilan bog'liq ta'lim ehtiyojlari.* Muloqotga kirishishga bo'lgan istakni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish; ijtimoiy o'zaro hamkorlik malakalarini shakllantirish; kundalik ijtimoiy-maishiy malakalarni va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini shakllantirish; ijtimoiy tajribani to'plash va kengaytirish; hissiyotlar, ularni ifodalash usullari va sabablari borasidagi adekvat tasavvurlarni shakllantirish; o'zi va atrof-muhit haqida yaxlit, tizimlashtirilgan tasavvurlarni shakllantirish; odatdagi tartibni bosqichma-bosqich o'zgartirish va stereotiplarni kengaytirish.

Autizmi bo'lgan bolalarning alohida ta'limni olishga bo'lgan ehtiyojlari ularning o'ziga xos rivojlanish nuqsonlariga bog'liq. Yuqorida tizimli tarzda keltirilgan ta'lim ehtiyojlari yakuniy bo'lmay, ularda asosiy jihatlar aks etgan bo'lib, ularni e'tiborga olish ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, autizmi bo'lgan bola birinchi navbatda, boshqa barcha bolalar kabi o'z istak va xohishlari, muayyan ehtiyojlari bo'lgan, ammo tushunish va to'g'ri yordam ko'rsatishga, muloqotga muhtoj bo'lgan bola ekanligini yodda tutish lozim. Erta tashxisni amalga oshirish, ilk yoshdan majmuaviy yordam ko'rsatish - ularda hayotiy muhim kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. O'z olamida yashaydigan bunday bolalarga nisbatan insonparvar yondashuvning yuzaga kelishi ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishlari, o'zligini namoyon qilishlari uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidova M.U. Maxsus pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: NIF MSH. 2020., 164 b.
2. Инклюзивное образование: Учеб. пособие / Н.А. Борисова, И.А. Букина, И.А. Бучилова и др.; сост. О.Л. Леханова. – Череповец: ЧГУ, 2016. – 162 с.
3. Инклюзивное образование. Настольная книга педагога, работающего с детьми с ОВЗ: Методическое пособие - М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС, 2011.